XALQ DEPUTATLARI ZAFAROBOD TUMAN KENGASHI QARORI

2024 - yil 7 - fevral VI-63-5-3-50-K/24 Zafarobod tuman hokimligi

Tuman mahalliy budjetining 2024 yil boshida shakllangan erkin qoldiq mablag‘i hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

Tuman mahalliy budjetining 2024 yil boshida shakllangan erkin qoldiq mablag‘i hisobidan mablag‘ ajratish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, “Budjet kodeksi”ning 126-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tuman budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlarni umumlashtiruvchi komissiyaning 2024 yil 29 yanvardagi 02-08-sonli xulosasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Do‘stnazarov) tuman mahalliy budjetining 2024 yil boshida shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan:

- “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida 75 000 000 (yetmish besh million) so‘m mablag‘ni «Yoshlar daftari» jamg‘armasiga.

- “Ochiq budjet” axborot portali orqali g‘olib deb topilgan loyihalarini moliyalashtirish maqsadida 562 000 000 (besh yuz oltmish ikki million) so‘m mablag‘ni “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga;

- moddiy yordam va ko‘makka muhtoj ehtiyojmand oilalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida 90 000 000 (to‘qson million) so‘m mablag‘ni “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasiga;

- Bannerlar, plakatlar va boshqa joriy xarajatlari uchun 11 500 000 (o‘n bir

million besh yuz ming) so‘m mablag‘ni tuman hokimligiga;

- 14 yanvar Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram sovg‘alari olish uchun 15 000 000 (o‘n besh million) so‘m mablag‘ni tuman hokimligiga;

- Zafarobod tumani hokimligi balansida bo‘lgan noturar binoni (Ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi) moddiy texnika bazasini mustahkamlash, zarur bo‘lgan qurilish materiallari harid qilish uchun 150 000 000 (bir yuz ellik million) so‘m mablag‘ni tuman hokimligiga ajratish vazifalari yuklatilsin.

3. Tuman hokimligi bosh hisobchisi Y.Narziev, Mahalla xayriya jamoad fondi tuman bo‘limiga ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanish vazifasi topshirilsin.

4. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Do‘stnazarov) ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat o‘rnatsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi, tuman hokimining birinchi o‘rinbosari v.v.b. J.Adilovlar zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi **O'Raxmanov**